



## **Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini takomillashtirishda raqamli transformatsiyaning roli**

**To‘ychiyev Otabek Shamshiyevich**

**“O‘zmilliybank” AJ Toshkent viloyat bosh boshqarmasi bosh buxgalteri**

Bank sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hozirgi davrda iqtisodiy o‘rinishni ta‘minlashning muhim strategik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalari infratuzilmasining jadal rivojlanishi raqamli moliyaviy xizmatlar ko‘lamining kengayishiga, bank tizimida tub transformatsion jarayonlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.

Moliyaviy texnologiyalar (fintech) sohasida faoliyat yuritayotgan kompaniyalarning yuqori darajadagi raqobati tijorat banklarini o‘z raqamli infratuzilmasini modernizatsiya qilishga, yangi mahsulot va xizmatlarni innovatsion usullar asosida ishlab chiqish va joriy etishga undamoqda. Zamonaviy tijorat banklarining biznes modeli, ularning hajmi va miqyosidan qat‘i nazar, raqamli texnologiyalar negizida shakllanmoqda. Bunday modelning asosiy maqsadi — mijozlarga yo‘naltirilganlik darajasini oshirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash hamda ichki biznes jarayonlarini optimallashtirishdir.

Hozirgi davrda tijorat banklari raqobatbardoshlikni saqlab qolish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun raqamli transformatsiyani tezlashtirmoqda. Aktivlar (kreditlar, investitsiyalar, likvid aktivlar) boshqaruvi bankning likvidlik, kapitallashuv va daromadlilikiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Raqamli vositalar esa an‘anaviy qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtirib, riskni oldindan aniqlash va portfelni dinamik boshqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bois aktivlar boshqaruvining yangi yondashuvlarini tizimli o‘rganish iqtisodiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Zamonaviy sharoitda bank faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va keng joriy etish uchun bir qator muhim shart-sharoitlar va omillar shakllanmoqda. Ushbu omillar bank tizimining raqamli transformatsiyasini jadallashtirishda asosiy turtki vazifasini bajaradi (1-rasm).

Bank faoliyatining raqamli transformatsiyasi jarayonida uchta asosiy yondashuvlar ajratib ko‘rsatiladi. Birinchi yondashuv raqamli texnologiyalarni joriy etishni alohida loyiha sifatida ko‘rib chiqishga asoslanadi. U keng ko‘lamli raqamli transformatsiyani ko‘zda tutmaydi. Transformatsiya jarayoni bosqichma-bosqich uzoq muddatli rejalashtirish va loyihalarni eksperiment qilish orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchi yondashuv raqamli iqtisodiyot ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan maxsus “raqamli sho‘ba korxona” (дочерняя компания) tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Uning afzalliklari quyidagilardan iborat:

Mijozlar ehtiyojlariga aniq yo‘naltirilgan strategiya ishlab chiqish va uni uzoq muddatli istiqbolda amalga oshirish imkoniyati;

Ichki tashkilot doirasida axborot texnologiyalari, dasturiy ta‘minot, analitika, marketing kabi turli yo‘nalishlarda malakali mutaxassislar jamoasini shakllantirish;

Tashkiliy tuzilmaning moslashuvchanligini ta‘minlash orqali yangi faoliyat yo‘nalishlarini sinab ko‘rish (bu jarayonda mavjud asosiy biznes jarayonlariga zarar yetkazmasligiga e‘tibor qaratiladi).

|                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Bank xizmatlarining past marjinalligi.                                                                              | Raqobatning kuchayishi va bozordagi yangi o‘yinchilarning paydo bo‘lishi fonida an‘anaviy bank xizmatlarining rentabellik darajasi pasaymoqda. Bu esa banklarni raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xarajatlarni optimallashtirish va daromadlilikni oshirishga undaydi.            |
| Moliyaviy bozor ishtirokchilarining biznes-modellarini transformatsiya qilishi va ekotizimlar yaratishga intilishi. | Bozor ishtirokchilari o‘z faoliyatini kengaytirish, mijozlarni uzoq muddatli jalb qilish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida integratsiyalashgan raqamli ekotizimlarga o‘tmoqda.                                                                                                        |
| Moliyaviy xizmatlarning raqamlashtirilishi orqali ularning qamrovini kengaytirish.                                  | Raqamli texnologiyalar bank xizmatlarining geografik va demografik chegaralarini kengaytirib, aholining turli qatlamlariga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini yaratmoqda.                                                                                                          |
| Banklarning an‘anaviy xizmatlar bo‘yicha raqobatbardoshligining kamayishi                                           | Fintech va texnologik kompaniyalar bozorda mustahkam o‘rin egallab, ilgari faqat banklar tomonidan taqdim etilgan xizmatlarning muhim qismini egallay boshladi. Natijada, banklar raqobat sharoitida innovatsion yechimlar va hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqishga majbur bo‘lmoqda. |
| Banklarning startaplar va texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik qilishga intilishi.                               | Innovatsion imkoniyatlardan tez va samarali foydalanish maqsadida banklar startaplar va texnologik tashkilotlar bilan strategik hamkorliklar yo‘lga qo‘ymoqda. Bunday hamkorliklar yangi raqamli mahsulotlarni yaratish, bozorga tez kirish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. |

### **1-rasm. Bank faoliyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi asosiy omillar**

Uchinchi yondashuv raqamli texnologiyalarni tashkilotning asosiy qadriyati sifatida tan olishga asoslanadi. Mazkur model boshqa yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin, biroq u bankning barcha ichki va tashqi jarayonlarini kompleks transformatsiya qilishga yo‘naltiriladi.

To‘g‘ri tashkil etilgan operatsion jarayon bankka samarali biznes modelini shakllantirish va moliyaviy faoliyatning umumiy samaradorligini yuqori darajada ta‘minlash imkonini beradi.

Zamonaviy sharoitlarda tijorat banklari mijozlarning ehtiyoj va xohishlariga yo‘naltirilgan faoliyat yuritishga intilmoqda. Bu esa mijozlar haqidagi ma‘lumotlarni to‘plash, ularni chuqur tahlil qilish hamda ushbu jarayonni samarali tashkil etishni talab etadi. Bunday tahliliy ishlarni amalga oshirishda Big Data (katta hajmdagi ma‘lumotlar) texnologiyasidan keng foydalaniladi. Maxsus avtomatlashtirilgan vositalar katta hajmdagi ma‘lumotlarni qayta ishlash imkonini beradi, chunki

an'anaviy dasturlar, jumladan Microsoft Excel, bunday ko'lamdagi ma'lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilishga mos emas.

Tijorat banklarining rentabelligini oshirish yo'llaridan biri ham aynan Big Data texnologiyasini joriy etishdir. Katta hajmdagi ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish orqali banklar o'z biznes-modellarini samarali shakllantiradi, bozor tendensiyalarini oldindan ko'ra oladi va mijozlarning joriy ehtiyojlariga moslashtirilgan individual takliflarni ishlab chiqadi. Natijada raqobatbardoshlik ortadi, xizmatlar sifati yaxshilanadi va bank faoliyatining umumiy samaradorligi oshadi.

|                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                    |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Pul mablag'larini o'tkazish va foydalanish imkoniyatlariga ega internet-banking ilovalari soni.                       | •Banklarning raqamli kanallari rivojlanish darajasini aniqlovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mijozlarga masofadan turib operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. |
| Internet-banking orqali omonatlar va depozitlarni boshqarish bo'yicha operatsiyalar hajmi.                            | •Mijozlarning raqamli xizmatlardan foydalanish darajasini va bankning raqamli mahsulotlar bozoridagi faolligini ifodalaydi.                                                        |
| Onlayn kreditlash bo'yicha operatsiyalar hajmi.                                                                       | •Raqamli kreditlash jarayonlarining kengayishi, qaror qabul qilish tezligi va kredit portfelining raqamli segmentdagi ulushini ko'rsatadi.                                         |
| Internet orqali brokerlik va investitsion hisoblar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshiruvchi veb-ilovalar soni. | •Bu ko'rsatkich bankning moliyaviy xizmatlar ekotizimida faol ishtirok etayotganini va investitsion xizmatlarning raqamli shaklda taqdim etilishini aks ettiradi.                  |
| Fintech tizimlarida (masalan, Apple Pay, Google Pay, Samsung Pay va boshqalar) ishtirok etayotgan banklar soni.       | •Banklarning xalqaro va mahalliy raqamli to'lov tizimlariga integratsiya darajasini, shuningdek, bozor innovatsiyalariga moslashuvchanligini bildiradi.                            |
| Bank bo'limlarining o'rtacha soni (to'liq raqamli banklarda filiallar soni juda kam bo'ladi).                         | •Bu ko'rsatkich bankning fizik infratuzilmasidan raqamli infratuzilmaga o'tish jarayonini tavsiflaydi.                                                                             |
| Banklarning moliyaviy infratuzilmaning raqamli elementlariga integratsiya darajasi.                                   | •Bunga tezkor to'lov tizimlari, yagona identifikatsiya va autentifikatsiya, biometrik ma'lumotlar hamda blokcheyn texnologiyalarini joriy etish kiradi.                            |
| Bank xizmatlari doirasining kengayishi va "bank"dan "moliyaviy ekotizim"ga o'tish.                                    | •Bu raqamli strategiyaning chuqurlashuvini, xizmatlar diversifikatsiyasini va mijozlarga kompleks yechimlar taqdim etish imkonini bildiradi.                                       |
| Elektron tijoratning rivojlanishi, bank obro'si va mijozlar fikrini raqamli muhitda boshqarish darajasi.              | •Bu ko'rsatkich bankning kiber makondagi faol ishtiroki, imidj boshqaruvi va mijozlar bilan raqamli aloqani yo'lga qo'yish sifatini ifodalaydi.                                    |

## 2-rasm. Tijorat banklarida raqamli transformatsiyaning ta'sirini baholash ko'rsatkichlari

Raqamli texnologiyalar banklarda mijozga moslashtirilgan shaxsiylashtirilgan bank mahsulotlarini yaratish imkonini beradi. Bunday mahsulotlarni joriy etish tijorat banklari uchun ham, mijozlar uchun ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Raqamli texnologiyalar yordamida ishlab chiqilayotgan individual bank xizmatlari banklar uchun qo'shimcha raqobat ustunliklarini shakllantiradi.

Shaxsiylashtirilgan mahsulotlar nafaqat mavjud mijozlar bazasini saqlab qolishga, balki yangi mijozlarni jalb qilish orqali uni sezilarli darajada kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, investitsion xizmatlar ham raqamli formatda joriy etilib, mijozlarga onlayn tarzda brokerlik hisobvaraqlarini ochish, ularni boshqarish hamda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni masofadan turib amalga oshirish imkoniyati yaratilgan.

Bunday innovatsion yechimlar bank xizmatlarining qulayligi va samaradorligini oshiradi, mijozlar bilan munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqadi hamda raqamli transformatsiya jarayonida tijorat banklarining bozor raqobatbardoshligini kuchaytiradi.